

## **Sinov mashqlarining ro'yhati, ularning bajarilishi va ruxsat etilgan harakat tezligi**

"TOSHKENT IMTIHON MARKAZI" dagi avtomatlashtirilgan avtodrom sharoitida topshiriladigan amaliy imtihon quyidagi majburiy sinov mashqlaridan iborat:

a) **"A" toifasi uchun:** "Harakatni boshlash (Start)", "Ilon izi", "Tor yo'lak", "Tezlashish-sekinlashish", "Gabaritli yarim aylana", "Gabaritli koridor", "Past tezlikda harakat", "Gabaritli sakkiz", "Harakatni yakunlash (Finish)";

b) **"B", "C", "D" toifalari uchun:** "Harakatni boshlash (Start)", "Piyodalar o'tish joyi" (tartibga solinmagan), "To'xtash va tik balandlikka ko'tarilish (estakada)", "90 gradus burchak ostida burilishlar", "Harakat tartibga solingan chorraha" (to'g'riga harakatlanish), "Ilon izi", "Harakat tartibga solingan chorraha" (to'g'riga harakatlanish), "Tor joyda qayrilib olish uchun boksga kirish", "Harakat tartibga solingan chorraha" (chapga burilish), "Temir yo'l kesishmasi" (tartibga solinmagan), "Tezlashish bo'lagi", "Avariya holatda to'xtash", **"Orqaga harakatlanib parallel to'xtash (parkovka)" "B" toifasi uchun,** "Harakat tartibga solingan chorraha" (o'ngga burilish), **"Orqaga harakatlanib parallel to'xtash (parkovka)" "C", "D" toifalari uchun,** "Harakatni yakunlash (Finish)";

c) **"BE", "CE", "DE" toifalari uchun:** "Harakatni boshlash (Start)", "Gabaritli koridorda orqa tomonga to'g'ri chiziqda harakatlanish", "Orqa bortni platformaga qo'yish", "Platformadan yo'lga chiqish", "Harakatni yakunlash (Finish)".

"TOSHKENT IMTIHON MARKAZI" dagi avtomatlashtirilgan avtodrom sharoitida topshiriladigan amaliy imtihon sinov mashqlarining bajarilish ketma-ketligi:

### **a) "A" toifasi uchun:**

"Harakatni boshlash (Start)";  
"Ilon izi";  
"Tor yo'lak";  
"Tezlashish-sekinlashish";  
"Gabaritli yarim aylana";  
"Gabaritli koridor";  
"Past tezlikda harakat";  
"Gabaritli sakkiz";  
"Harakatni yakunlash (Finish)".

### **b) "B", "C", "D" toifalari uchun:**

"Harakatni boshlash (Start)";  
"Piyodalar o'tish joyi" (tartibga solinmagan);  
"To'xtash va tik balandlikka ko'tarilish (estakada)";  
"90 gradus burchak ostida burilishlar";

"Harakat tartibga solingan chorraha" (to'g'riga harakatlanish);  
"Ilon izi";  
"Harakat tartibga solingan chorraha» (to'g'riga harakatlanish);  
"Tor joyda qayrilib olish uchun boksga kirish";  
"Harakat tartibga solingan chorraha" (chapga burilish);  
"Temir yo'l kesishmasi" (tartibga solinmagan);  
"Tezlashish bo'lagi";  
"Avariya holatda to'xtash";  
"Orqaga harakatlanib parallel to'xtash (parkovka)" "B" toifasi uchun;  
"Harakat tartibga solingan chorraha" (o'ngga burilish);  
"Orqaga harakatlanib parallel to'xtash (parkovka)" "C", "D" toifalari uchun;  
"Harakatni yakunlash (Finish)".

**c) "BE", "CE", "DE" toifalari uchun:**

"Harakatni boshlash (Start);  
"Gabaritli koridorda orqa tomonga to'g'ri chiziqda harakatlanish";  
"Orqa bortni platformaga qo'yish";  
"Platformadan yo'lga chiqish";  
"Harakatni yakunlash (Finish)".

Avtomatlashtirilgan avtodrom hududida barcha avtomototransport vositalarining maksimal tezlikni 20 km /soat dan oshirmasdan harakatlanishiga yo'l qo'yiladi (belgilangan maksimal tezlikdan oshib ketish avtomototransport vositalari 5 km/soat ga teng bo'lgan o'lchagichlarning ruxsat etilgan xatosi hisobga olingan holda amalga oshiriladi), maksimal tezlik 40 km/soat dan oshmasligi kerak bo'lgan "Tezlashish bo'lagi" sinov yo'lagi bundan mustasno.